

ZAMONAVIY METODLARNING TARIX DARSLARIDAGI AHAMIYATI

Tursunqulova Elmira Botiraliyevna

Andijon viloyati Shahrixon tumani 13-maktab tarix fani o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada tarix fani o'qituvchilari uchun o'qitish uslubi va ta'lif texnologiyalari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, innovatsiya, metodika, texnika.

Maktabda tarix darslarini tashkil etishda “Fikrlarning tarmoqlanishi”, “BBB”, “FSMU”, “VENN diagrammasi”, “Charxpalak”, “Tushunchalar tahlili”, “Raqmlar so'zlaganda”, “Baliq skleti”, “Yelpig'ich”, “Bumerang”, “Zakovat”, “Ha yoki yo'q”, “Zinama-zina”, “Sinkveyn”, “SWOT” tahlili kabi innovatsion, noan'anaviy ta'lif metodlaridan foydalanish mumkin bo'lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o'qituvchi o'zi dars beradigan o'quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o'ziga xos yo'nalishda tashkil etishi, o'zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o'xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda, bunday o'yinlar mavzularni o'quvchilatga oson va tushunarli berishning yo'llaridan biri hisoblanib, o'qituvchi yangi-yangi ta'lifi o'yinlarni darslarida qo'llashi, hatto o'zi ham shunday o'yinlarni o'ylab topishi mumkin. Zero, biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.

Avvalo dars boshlashdan oldin o'quvchilar sonidan kelib chiqib, ikki yoki uch guruhg'a ajratiladi. Guruhlar tarix fanidan kelib chiqib, “Istiqlol”, “Ozodlik” deb nomlanadi. “Kun yangiliklari”ni o'tkazish orqali yurtimizda bo'layotgan voqealarni hodisalar haqida axborot tinglanadi. Tarix fanida o'tilagan mavzular asosida “Klaster” (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtaсидаги aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi.



O'quvchilar bilan yakka tartibda uy vazifasini bajargan yoki bajarmaganligini bilish uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalangan holda aniqlik kiritish mumkin. Yana "Aqliy hujum" metodidan ba'zi sabablarga ko'ra darsga kech kelgan o'quvchilar bilimini tekshirish va ularni boshqa kech qolmasligini ta'minlash uchun ham qo'llashni tavsija qilgan bo'lar edim. "Aqliy hujum" metodi uchun savollar: Tarix fani nimalarni o'rgatadi?, O'zbek tarixining buyuk siymolarini sanab bering, Tarix fanining maqsad va vazifalari qanday? O'quvchilar bilan tez-tez savol-javob o'tkazish bilim doirasini kengaytiradi. Savollarni bilmagan o'quvchilarni jazolash (raqsga tushish, qo'shiq va she'r yoki sanalarni yoddan aytish) orqali ham bilim olishga intilishlarga sabab boladi.

Venn diagrammasi usulida o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sentezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng 3 bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka sxema chiziladi. Avval ikkala mavzu haqida ma'lumot yoziladi. So'ng ularning o'xshash tomonlari yoziladi va ikkita mavzu haqaidagi ma'lumotlar mustahkamlanadi. Bu usul ko'nikma hosil qilishda, tushuncha va axborotlarni umumlashtirish hamda ixchamlashtirish uchun tez va kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tarix darslari mobaynida o'quvchilarga yuqorida aytilgan muammolarga qarshi kurashuvchi zamonaviy o'yinli metodlarni qo'llash orqali oson va tajribalarga suyangan holda bartaraf etish mumkin. Dars davomida, "To'g'ri-noto'g'ri" metodi orqali sanalar va tarixiy voqealarning farqlashga oid ma'lumotlarni qo'llash zarur. "To'g'ri-noto'g'ri" metodi savollar tarzida beriladi yoki tarqatma shaklida yozib qo'llariga berish bilan amalga oshirilishi ham mumkin.

1. O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikka 1991-yilda erishgan. To'g'ri. 2. "O'zbekiston davlat ramzları to'g'risi" qaror 1992-yilda qabul qilingan. Noto'g'ri. Shu tartibda o'yin shaklida tez-tez aytildi.

Uyga vazifa berishda qo'shimcha holda o'quvchilarning izlanishi va qiziqishlarini shakllantirish maqsadida tug'ilib o'sgan qishlog'i, mahallasi va viloyatidagi tarixiy joylar haqida ma'lumotlar to'plash topshirilsa, ona-Vatanga mehr-muhabbat, tarixga, ota-bobolar merosiga hurmat-ehtirom tuyg'usi shakllantiriladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'rta ta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda, qolaversa mavzularni oson tushunishlariga, bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi-pedagog borki, izlanishlar bilan yangiliklarga intilib darslarni zamonaviy usulda tashkil etsa, o'zi hatto o'quvchilari ham yuksak yutuq va marralarni zabit etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.N.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" 1992. № 7-8.
3. Gaffarov YA, Gafforova M. O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitish usullari.T., 1996.